

BOSHLANG`ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**Mamajonova Dilrabo***Boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarida zamonaviy metodlardan foydalanish, didaktik o`yinlar, interfaol metodlardan foydalanib darsni qiziqarli va samarali o`tkazish haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *Boshlang`ich ta`lim, sinf, o`qituvchi, o`quvchi, samaradorlik, metod, dars, ta`lim, jarayon.*

Hozirgi vaqtida ta`lim jarayonida o`qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O`qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o`qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta`lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta`lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta`lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta`lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta`lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta`lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta`lim beruvchi tomonidan ta`lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta`lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammioli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta`lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Ta`lim samaradorligini ta'minlashda o'quvchilar bilim sifati monitoringini izchil tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili ta`limida ushbu monitoring ishlari ko'proq yozma ishlar, diktant va insholar vositasida aniqlanadi. Diktantda o'quvchining imlo savodxonligi, bo'g'in ko'chirish, satrdan satrga ko'chirish qoidalariga rioya qilishi, ishora belgilarini o'z o'rnida ishlata bilish ko'nikmalari tekshirilsa, ijodiy bayon, matn yaratish, insho kabi yozma ish turlarida esa o'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati, uslubiy savodxonligi kabi jihatlar aniqlanadi. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta`lim tizimining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil

taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Bularni amalga oshirishda o`qituvchining darslar va sinfdan tashqari mashg`ulotlar jarayonida interfaol metodlardan unumli foydalana olishi ham muhim o`rin tutadi. Interfaol metodlardan amalda foydalanishda quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

- o`quvchi o`zi o`rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o`rgata olmaydi;

- o`qituvchi o`quvchilarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan

jarayonni tashkil qiladi ya`ni yapon xalq maqoli misolida olsak, o`qituvchi baliq tutib bermaydi, balki unga baliq tutishni o`rgatadi;

- bilim borliqdan ko`chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi kabilar.

Shuningdek o`qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o`qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o`quvchini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o`quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI:

1. Abdullaeva.K, Safarova.R, Bikboeva.N. —Boshlang`ich ta'lim tushunchasi va Boshlang`ich ta'lim. - T.: 1998. - B. 2-9.
2. Abdullaeva K, Safarova R va boshqalar. —Boshlang`ich ta'lim standarti Boshlang`ich ta'lim. - T.: - 1998. - B. 9-6.
3. Abdurahmonova.N, Jumaev.M, O`rinboyeva - Boshlang`ich Sinflar Matematika va didaktik materiallarni o`qitish. Qo'llanma usullarini o'qitish. —T.: Istiqlol. 2004 yil,